# 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Samarqand viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 41 824,9 mlrd so‘mni, yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 40 869,6 mlrd so‘m (103,6 %)ni, o‘rmon xo‘jaligi 787,7 mlrd so‘m (102,5 %), baliqchilik xo‘jaligi 167,6 mlrd so‘m (117,5 %)ni tashkil qildi.

Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,9 foizni tashkil etdi.



**41 824,9** — **Samarqand viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd so‘m**

01 — **40 869,6** — **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

02 — **787,7** — **O‘rmon xo‘jaligi**

03 — **167,6** — **Baliqchilik**

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’ati, foizda




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, foizda



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 97,7 foizi dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 1,9 foizi o‘rmon xo‘jaligi, 0,4 foizi baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (5 250,1 mlrd so‘m) va Ishtixon (4 343,8 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on (182,2 mlrd so‘m) va Samarqand (240,5 mlrd so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur’atlari Qo‘shrabot (111,1 %), Nurobod (108,4 %), Samarqand, (107,7 %) hamda Oqdaryo (105,4 %) tumanlarida kuzatildi. Payariq (100,2 %) va Paxtachi tumanlarida (100,6 %) esa aksincha, o‘sish sur’atlari pastligini ko‘rish mumkin.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish (o‘zgarish) sur’ati, foizda




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 40 612,7 mlrd so‘mni, yoki o‘sish sur’ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,5 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 21 617,1 mlrd so‘m (103,0 %), chorvachilik mahsulotlari 18 995,6 mlrd so‘m (104,2 %)ni tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, foizda



**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, foizda**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda xo‘jaliklarning ulushi, foizda**




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 58,1 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 39,4 foizi fermer xo‘jaliklariga, 2,5 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, foizda




2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toyloq tumanida (52,5 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (100,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand shahrida (20,2 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarida (0,0 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Oqdaryo tumanida (44,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urgut tumanida (0,1 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 21 617,1 mlrd so‘mni, yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,0 foizni tashkil etdi.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 58,1 foizni tashkil qildi.

## Don jami

**Hajmi, ming tn.**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 748,3 ming tonna don (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 11,0 foiz ko‘p) yetishtirilgan.

Don yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmining 84,6 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Samarqand viloyati hududlari kesimida donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming tonna**




**O‘sish sur’ati, foizda**







**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**






2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1 259,8 ming tonna sabzavot (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 1,6 foiz ko‘p) yetishtirildi.

Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmining 36,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Samarqand viloyati hududlari kesimida sabzavot yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka












2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 575,2 ming tonna kartoshka (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 4,7 foiz ko‘p) yetishtirildi.

Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilganimizda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmining 69,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Samarqand viloyati hududlari kesimida kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz

**Hajmi, tonna**




**O'sish sur'ati, foizda**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, foizda**




**Fermer xo'jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 97,3 ming tonna poliz ekinlari (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,9 foiz ko'p) yetishtirildi.

Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmining 70,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



# Samarqand viloyati hududlari kesimida poliz ekinlari yetishtirish hajmi, tonna



# Meva va rezavorlar

**Hajmi, ming tonna**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 319,1 ming tonna meva (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 7,1 foizga ko‘p) yetishtirildi.

Meva yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiy hajmining 48,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Samarqand viloyati hududlari kesimida meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, tonna**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 534,1 ming tonna uzum (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,1 foiz ko‘p) yetishtirildi.

Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilganimizda, uzum yetishtirish umumiy hajmining 68,6 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Samarqand viloyati hududlari kesimida uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 18 995,6 mlrd so‘mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,2 foizni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 46,8 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining yetishtirish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 240,6 ming tonna go‘sht (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,9 foiz ko‘p), 1 089,1 ming tonna sut (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,9 foiz ko‘p) yetishtirildi, 1 082,1 mln dona tuxum (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,1 foizga ko‘p) olindi, 7 043,6 tonna baliq (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 17,9 foiz ko‘p) ovlandi.

## Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming tonna**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 240,6 ming tonna go‘sht (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,9 foiz ko‘p) yetishtirildi.

Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmining 80,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Samarqand viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, ming tonna



# Sut

**Hajmi, ming tonna**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1 089,1 ming tonna sut (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,9 foiz ko‘p) yetishtirilgan.

Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmining 90,7 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Samarqand viloyati bo‘yicha yetishtirilgan sut hajmi, ming tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln dona**




**O'sish sur'ati, foizda**




**Olingan tuxum mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, foizda**




**Fermer xo'jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 082,1 mln dona (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,1 foiz ko'p) tuxum olingan.

Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmining 46,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



## Samarqand viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, mln dona



# Baliqchilik

**Hajmi, tonna**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Ovlangan baliqni xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 7 043,6 tonna baliq (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 17,9 foiz ko‘p) ovlandi.

Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmining 92,5 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Samarqand viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hududlar kesimida hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni hamda o‘sish sur’ati




2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,1 foizi fermer xo‘jaliklari, 93,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 0,5 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, mos ravishda qo‘y va echkilar umumyiy sonining 9,1 foizi fermer xo‘jaliklari, 85,1 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 5,8 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonining 17,3 foizi fermer xo‘jaliklari, 79,8 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 2,9 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonining 38,3 foizi fermer xo‘jaliklari, 42,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga, 19,5 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 721,5 ming taga yetdi, 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 31,7 mingta (1,9 %)ga ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Samarqand viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 737,9 ming boshga yetdi, 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 13,1 mingta (1,8 %)ga ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlar bosh soning 93,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Samarqand viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 640,4 ming taga yetdi, 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 54,1 ming ta (2,1 %)ga ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilar bosh soningning 85,1 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Samarqand viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 29 849 taga yetdi. 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 990 ta (3,4 %)ga ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, otlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlar bosh sonining 79,8 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Samarqand viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 13 582,0 ming boshga yetdi. 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 121,0 ming ta (9,8 %)ga ko‘p.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati, foizda**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 42,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Samarqand viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

• (66) 235-22-01